

MARDONBEK BOLTAYEV
QAHRAMON O'G'LI


SHU'LA.

she'rlar

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2007

84(53)6

Mardonbek Boltayevning «Shu'la» deb nomlangan ushbu kitobi murg'ak qalbning ko'ngil izhori bo'lib, unda she'riyat bo'stonining ilk g'unchalarini ko'rishingiz mumkin. Bu bo'stonning sarxush bo'ylarini sizga arg'umon qilamiz.



10 33822
1

ISBN 978-9943-08-161-1

© Mardonbek Boltayev Qahramon o'g'li, «Shu'la»,
«Yangi asr avlodi»-2007 yil.

KO'NGIL DUNYOSIGA TASHRIF

Tilimizda «Bolalarga bering dunyoni», degan azaliy shior yuradi. Haqiqatan ham, bolalik – orzu, bolalik – ishonch, bolalik – jasoratga intilish, kelajakka tuzilgan ulkan rejalar va istiqbolning boshlanishi.

Bolalikni kim ham sog'inmaydi, deysiz?! Bu fasl har bir insonga beg'uborlik, samimiylik, kelajakka ishonch, orzular sari intilish tuyg'ularini tuhfa etadi. Balki shuning uchun ham bolaligimiz biz uchun qadrlidir.

O'zining ilk she'riy mashqlari bilan dunyo mukammalligini o'rganishga, uning hayratlaridan bahra olishga va she'riyat atalmish sirli olamning turfa go'zalliklariga oshno bo'lishga intilayotgan Mardonbek hali 11 yoshda. Ilk she'riy mashqlarini mo'jazgina to'plam qilish ishqiy tushibdi uning yuragiga. Biz Mardonbekning she'riy mashqlarini u yoki bu darajada, deb izohlamochi yoki baholamochi emasmiz. Asosiysi, uning yuragidagi she'riyatga, adabiyotga, go'zallik va nafosat olamiga bo'lgan havasidir.

Mardonbek Boltayev 1996 yilda Xorazm viloyati Xazorasp tumanida tug'ilgan. Hozirda tumandagi 15-son o'rta maktabining 5-sinfida tahsil olmoqda. Ona tili, adabiyot, matematika

fanlariga qiziqadi. She'rlari tuman, viloyat, respublika gazetalarida, «G'uncha», «Gulxan» jurnallarida e'lon qilingan. O'z she'rlari bilan «Assalom O'zbekiston», «Bir o'lkaki...» ko'rsatuvlarida ishtirok qilgan. Shuningdek, u maktab va tuman miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok qilib keladi. Jumladan, tuman Ma'naviyat targ'ibot markazi tomonidan o'tkazilgan tadbirlarda ham mutassil qatnashadi. Ushbu kitobning dunyo yuzini ko'rishiga ham tuman Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbariyatining tavsiyalari asos bo'ldi.

Sizga hayratlaringiz go'zal satrlar, betakror misralar baxsh etsin. She'riyat dunyosi ostonasidagi qadamingiz qutlug' bo'lsin, ko'ngil dunyosiga xush kelibsiz, bolajon!

*NASIBA YUSUPOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi*

XORAZM

Sharqda qadim durdona shahar,
Afsonaviy ko'hna Xorazm.
Bobolardan merossan bizga,
Jayhun kabi daryoi azim.

Mehnatsevar xalqim ko'ngli keng,
Asl bog'bon, dehqon Xorazm.
Obidalar osmonlarga teng,
Minoralari qalqon Xorazm.

Jaloliddin nomin ulug'lab,
Aziz yurtga qilaman ta'zim.
Olam aro dovrug'i ketgan,
Dunyolarga mashhur Xorazm.

Biz farzandlar senga munosib,
Bo'lmoqlikka qilarmiz azim.
Bebahosan ey, ko'hna diyor,
Sharqda yog'du sochgan Xorazm.

BUVIJON

Boshim uzra soyabon,
Ertak-qissalarga kon.
Onamdek aziz bo'lgan,
Mehribonim buvijon.

Uydagi porloq quyosh,
Ilhomimga zo'r qo'ldosh.
Ilm olsam ko'makdosh,
Ilk ustozim buvijon.

Oftobim deb erkalab,
Deysiz oqil bolamsan.
Nabiralar ichida,
O'zgacha bir olamsan.

Havas qilar tengdoshlar,
Axir shoir bolaman.
Siz yonimda bo'lsangiz,
Sizdan ilhom olaman.

Baxtu kamolim ko'ring,
Davru davronlar suring.
Yuzlarga kirib yuring,
Jonajonim buvijon.

QO'ZIQORIN

Bahorning erkatoyi,
Boshingda ulkan qalpoq.
Adirlarning k'orkisan,
Chuchmoma bilan o'rtiq.

Onang – yer, otang – yomg'ir,
Baxsh etar senga borin.
Jilg'a suvin simirgan,
Qalpoqli qo'ziqorin.

Xoldor soyaboningga,
Men ham kirsam maylimi.
Keyin boshlab yuborsak,
Qo'ziqorin saylini.

OILAMIZ

Ota-onam ikkalasi,
Biri – quyosh, biri – oy.
Ular mustahkam qo'rg'on,
Oilamiz to'kin va boy.

Erkalansam dadamga,
Toychog'im deb quchadi.
Ertak so'ylab sirli dunyo,
Eshiklarin ochadi.

Onam issiq non yopar,
Nonday otash yuragi.
Ota-onam teng ikkisi,
Oilamizning tirgagi.

TABIAT SAHNASIDA

Tabiat zo'r bastakor,
Musiqachaalar qiziq.
Har biri o'z sozida,
Navolar aylar tortiq.

Rubobchidir zilol suv,
Nay chaladi shabboda.
Maysalarning qarsagi,
Taraladi havoda.

Gul yaproqlar changchilar,
Tabassum bor labida.
Ular tahsil olishgan,
Tabiat maktabida.

Chumchuq g'ijjakchi mohir,
Qo'shiqsevar sozanda.
O'rik raqsga tushar,
Gul yuzlarida xanda.

Sholiyu bug'doyzorlar,
Tog'u bog' tomoshabin.
O'yin-kulgi xo'p serob,
Keling, chiptalar tekin.

Navo, kuy, qo'shiqh, ohang,
Taralib nafasida.
Har kun konsert qo'yilar,
Tabiat sahnasida.

GUL QIZLAR

Gul qizlar go'zal qizlar,
Oymoma, oftob yuzlar.
Kulgilari qo'ng'iroq,
Shabboda, shamol qizlar.

Gul qizlarning o'zi gul,
Ismlari, so'zi gul.
Gullolaning chehrasi,
Gulandomning yuzi gul.

Gulnoza gulni sevar,
Gul ekadi Gulzoda.
Hovlisi chaman, bo'ston,
Ko'chalari ozoda.

Barchangiz g'uncha kabi,
Chiroyli, go'zalsizlar.
To'rt fasl ham bahorsiz,
Gul qizlar, go'zal qizlar.

HAVAS

Shivirlab so'z aytdim samolarga men,
Hayrat-la tikildim oymomaga ham.
Goho uchdim xayol qanotlarida,
Menga mo'jizadek tuyildi olam.

Havasim keladi g'uj yulduzlarga,
Ahil va ittifoq yasharlar chaqnab.
Bulutlar to'planib yomg'ir yo'llaydi,
Tuproq chechak yasar ko'klamga atab.

Havasim keladi azim tog'larga,
Men ham ular kabi bo'lsam ulug'vor.
Ota-onamning juft ko'rar ko'ziman,
Yorqin kelajak ham mendan umidvor.

TEMIR TULPOR

Samoda ulkan kema,
Burgutday lochin qanot.
Ular shamoldan tezroq,
Zo'r, azamat samolyot.

Men ham ucholsam edi,
Bo'lib qo'rqmas, dovyurak.
Qo'llarim, qanot bo'lsa,
Oyoqlarim g'ildirak.

Boshimni qilib zo'r rul,
Yuragim bo'lsa mator.
Boshqarar meni aqlim,
Shunda yo'lolmas xatar.

Olisni qilar yaqin,
Samodagi kumush ot.
Xayollarga chorlagan,
Temir tulpor – samolyot.

QARINDOSHLAR

Osmon – yomg'ir, qorning otasi,
Onasidir – momiq, oq bulut.
Zamin – esa qadrdon uyi,
Bog'u bo'ston yashnagan hudud.

Bulut dardi momaqaldir, oq,
Tug'iladi yomg'ir, qor va do'l.
Daryolar-chi bobokaloni,
Bog'lar obod, meva, hosil mo'l.

Mayin esgan shaddod shamollar,
Tabiatning belanchagidir.
Bahorda ko'z ochgan chechaklar,
Ona yeming kelinchagidir.

Maysalarni siypalagan yel,
Buvi oyning allalaridir.
Jimir-jimir etib jilmaygan,
Yulduz – amma, xolalaridir.

Yerda ungan giyoh, daraxtlar,
Amakijon, tog'alaridir.
O'n ikki oy – polvon, pahlavon,
Aziz ini, og'alaridir.

Zamin bilan osmon orasi,
Tabiatning buyuk vatani.
Qarindoshlar yashashar ahil.
Shundan obod, suyuq vatani.

ONAM ALLASI

Onam alla aytar singlimga,
Ovozlari sehri, mayin.
Quloq solib uxlab qolaman,
Dil navosin tinglagan sayin.

Allasiga qo'shar umidin,
Kamolimiz tilab aytadi.
Baxtli hayot qo'shiq'in kuylab,
Boshimizni silab aytadi.

Yuragimga orzular solar,
Yulduz chiqqan oqshom pallasi.
Dunyodagi eng ulug' qo'shiq,
Sirli navo – onam allasi.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston sen aziz Vatan,
Yer yuzida tengsiz, yagona.
Butun dunyo tan oldi seni,
Ko'hnadirsan qadim, durdona.

Farzandlaring ko'ksi ulkan tog',
G'alabayu zafar senga yor.
Tuproq'i zar, ey, oltin vodiy,
Olam aro bebaho diyor.

Bog'laringda mevalaring bol,
Boyligingdir mehnatsevar xalq.
Quyosh kabi olamga nur soch,
Xuddi oydek osmonlarda balq.

Farzandingman, senga sodiqman,
Yurtboshimga qanot bo'laman.
Istiqloлга hamnafas, hamroh,
Iqbol bo'lib mangu kulaman.

ILHOM PARISI

1

Hovlimiz etagidan,
Oqadi katta ariq.
Shu ariqning sirlari,
Menga edi ko'p qiziq.

Bahor keldi deguncha,
Shu tomonga shoshardim,
O'zim ham anhor kabi,
To'lar edim, toshardim.

Ariq bo'yi maysazor,
Ustida baland ko'prik.
Suv o'ynoqlab oqadi,
Har halqa jajji ko'pik.

Suvning ajib raqsini,
Kuzatishni sevardim.
Ko'nglim chechaklarini,
Ariq bo'ylab ekardim.

Yaproqlarning shitiri,
Zilol suvning oqishi.
Menga ilhom beradi,
Billur baldoq taqishi.

Xotiramda saf tortib,
She'rlar hosil qiladi.
So'z marjonday tizilib,
Baxtu iqbol tiladi.

2

Bolalik chog'larimda,
Ne xayollar boshimda.
She'rlar yoza boshladim,
O'sha jajji yoshimda.

Chindan ham suv bo'yida,
Bilmam beri, narisi.
Balki yo'liqqan menga,
She'rlar ilhom parisi.

BOBOJONLAR

*Ushbu she'rimni sevimli
hobojonlarim – Boltaboy va Erkinboy
bobomlarga atadim*

Avlodlar sizdan boshlanar, tarixlar ham,
Bu dunyoda bir bog'bonsiz bobojonlar.
Biz suyangan ulkan, azim tog'misiz yo,
Oy, quyoshli keng osmonsiz bobojonlar.

Bizga hikmat, rivoyatdir har so'zingiz,
Dunyoda eng ulug' inson bobojonlar.
Mehnat-la toblangan sizning bardoshingiz,
Quruvchi, murabbiy, dehqon, bobojonlar.

Izlaringiz ko'zga surib, quloq tutay,
O'gitingiz ibratli doston bobojonlar.
Boltaboy, Erkinboy bobo – yuzga kiring,
Baxtimizga bo'ling omon, bobojonlar.

Siz bilmagan bu olamning sirlari yo'q,
Bilimdon, yo'lboshchi, sarbon, bobojonlar.
Bag'ringizni to'ldirar dilbandlaringiz,
Turingiz turguncha dunyo, bobojonlar!

XAZORASPIM

Xazorasp – sen ming otliqlar diyorisan,
Sendan andoza olgandir xulq-odobim.
Qadimiysan, ko'hnaligi ming yilga teng,
Ertagu afsonaga to'la kitobim.

Xazoraspim – Vatan ichra Vatanimsan,
Amu suvi bog'laringdan oqib o'tar.
Quyosh tongda erkalasa yaxshi ko'rib,
Tun bo'yi oy senga shaydo boqib o'tar.

Sen sevimli «Karvak» olmam hosili mo'l,
Tilni yorar «Gurvak»imsan boldan shirin.
«Lazgi»ning sho'x navolari qulog'imda,
Hofizlaring sanab beray qaysi birin.

Xazoraspim – onajonim, ota yurtim,
Dasturxonning to'kin bo'lsin, to'ylar bo'lsin.
Ximmonlaring bug'doylardan tog' yasasa,
Yaylovlaring to'la qo'zi-qo'ylar bo'lsin.

ONADAY AZIZ

Mehri daryo, qalbi pok,
Ona kabi aziz zot.
Ustoz erur dunyoda,
Shodliklarga qo'sh qanot.

Bog'bon erur gul kabi,
Ulg'aytirar bizlarni.
Istiqbolli manzilga,
Boshlar o'g'il-qizlarni.

Har so'zida bir olam,
Ilm, ma'no mujassam.
Minglab tahsin, tashakkur.
Yog'ilsa ham shuncha kam.

Bergan saboqlarini,
Dilimizda saqlaymiz.
Ishonchin a'lo baho,
Beshlar bilan oqlaymiz.

XAYOL

Men yana zavq bilan xayol suryapman,
Qnotim bo'lsa-yu, samoga uchsam.
Shamolga qo'shilib kengliklar aro.
O'sha olis oyni, yulduzni quchsam.

Ertakda yozilgan «O'zga olam»ni,
Pahlavon, malika, devlarni ko'rsam.
Sirli dunyolari haqida bir zum,
Qiziq sarguzashtli suhbatlar qursam.

Song do'st bo'lib o'sha qahramonlarni,
O'z jannat yurtimga yetaklab qaytsam.
Ular haqida yangi, uzundan-uzoq,
Dostonlar yaratsam, ertaklar aytsam.

QUSHLAR KETMANG...

Bir kuni «Qozoq» bozorida o'lik holda sotilayotgan qashqaldoq, qirg'ovullarni ko'rib, ularga achinib, yig'lagim keldi. Berahm sotuvchilarga qarata «Axir siz tabiatning jigarbandlariga qiron keltirayapsiz. Tabiat bizdan og'rinadi-ku...», degim keldi...

Qushlar bizdan arazlagan,
Sayrashlari hazin-hazin.
Qush tilini bilmaymizda,
Tushinmaymiz dardu arzin.

Don bermaymiz musichaga,
Qaldirg'ochlar ko'rinmaydi.
Attang cho'zma cho'zgan ovchi,
Qush ovidan erinmaydi.

Laylak qo'nmas simyog'ochga,
Ko'l bo'ylari vahimali.
Tabiatning arazidan,
Xabarimiz yo'qdir hali.

Cho'chib-cho'chib parvoz qilar,
Samodagi burgutlar ham.
Qirg'ovullar panoj so'rar,
Rahm qil bizga ey, odam!

Hatto tushda eshtayapman,
Qushning hazin nolalarin.
O'yin qilib o'ldirdilar,
Tabiatning bolalarin.

OTA MEHRI

Ota mehri – sehrdir bu,

Fidoyilik, yaxshilik.

Bag'ri go'yo bir bo'stondek,

Bu hayotning naqshidek.

Ota mehri – dunyoda,

Farzand uchun tengsiz kuch.

Olmos, zarlar arzimas,

Qadrsiz oltin, kumush.

Ota mehri – jonkuyarlik,

Har narsadan buyukdir.

Ota uchun farzand, ayol.

Bebaho va suyukdir.

GO'ZAL VATANIM

Shahar bilan qishloqlar gal,
Qishda qaynar buloqlar go'zal.
Adirlarga bir nigoh tashlab,
Toychoq, qo'zi, uloqlar go'zal.

Oltin boshqoq bug'doyzor go'zal,
Ko'rkam fasl, gul bahor go'zal.
Tog'loriga o'xshagim kelar,
Chotqol, Ko'htang, Hisor go'zal.

Tole ramzi, xumo yo'ldoshing,
Mudom porlab turar yo'ldoshing.
Farzandlaring baxt sari boshlar,
Xalqparvar va odil Yurtboshing.

Oltingga kon tog'laring go'zal,
Ko'm-ko'k dala, bog'laring go'zal.
Go'zallikda tenggi yo'q Vatan,
Ozod va hur chog'laring go'zal.

BAYROG'IM

Tinch va ozod Vatanning,
Yuksak mag'rur boshida.
Hilpirar yurt bayrog'i,
Ayni o'n besh yoshida.

Mustaqillik tengdoshi,
Do'stisan, o'rtog'isan.
Sen erkparvar elimning,
Ramzisan, bayrog'isan.

Osmonlarga tenglashgin.
Lol qolsin butun dunyo.
Hilpiragin to'xtamay,
Shamolga o'xshab go'yo.

Ko'zlarimga suraman,
Buyuk shonli mayog'im.
Olamga ko'z-ko'z qilay,
Ozod yurtim bayrog'in.

GERB

O'ng yog'ida bug'doyzor,
So'l yog'ida oq oltin.
O'rtasida Xumo qush,
Qanot yozmoqda sekin.

Keng yaylov vodiylari,
Daryolari toshqindir.
Ufqida porlar quyosh,
Tole unga shoshqindir.

Oyu yulduz samoda,
Yog'du sochib turadi.
Mehnatsevar xalqimning,
Yo'lin ochib turadi.

Gerbi, tang'asi bor yurt.
Porloq Vatan degani.
Xalqi esa tinch, ahil,
Bir jonu tan degani.

YULDUZ SIRI

Olamning sirlari ko'p,
Jumbog'i yechilmagan.
Hali ko'plab darchalar,
Eshiklar ochilmagan.

Miltir-miltir ko'zlari,
Yig'laganga o'xshaydi.
Yulduzda hayot bormi,
Unda kimlar yashaydi.

Olmadaymi, shardaymi,
Yo yerdan ham kattaroq.
Tuproq'in rangi qanday,
Sariqmi, kul rangmi, oq?

Yaltiraydi miltirab,
Jimir-jimir qiladi.
O'z sirini qandayin,
Yashirishni biladi.

BIRINCHI USTOZ

Birinchi ustozim

RUXSORA EGAMBERDIYEVAGA

Ilk bora maktabga qadam qo'yganda,
Muloyim jilmayb kutib oldingiz.
Orzularga tqila mitti qalbinga,
Bir olam havas va umid soldingiz.

Odobu ahloqdan berdingiz saboq,
Kitoblarni dilga oshno qildingiz.
Harfu savodimiz, kelajagimiz,
Har qanday qiymatdan afzal bildingiz.

Siz bergan ilmdan munavvar jahon,
Taraqqiyot ildam borar tobora.
Qalbinga yaqinsiz birinchi ustoz,
Sizga tashakkurlar aytgum ming bora.

KUMUSH QISH

Kuz ta'tilga chiqqanda,
Bir oz kamayib tashvish.
Borliq ketib uyquga,
Asta kirib kelar qish.

Qishning ham qz gashti bor,
Osmon tqkar zarlarin.
Izg'irin yel-shamollar,
Sochar oppoq qorlarin.

Ayoz bobo uvillab,
Yuzlarim chimchilaydi.
Xivchin olib qo'liga,
Qish otin qamchilaydi.

Qahraton bo'lsa hamki,
Qishning quvnoq gashti bor.
Tog'u qir dala oppoq,
Ko'nglimizdek beg'ubor.

OYNAI JAHON

Ey, zangor oynai jahon,
Sen o'zingsan ming bir jahon.
Ta'rifingga tilim loldir,
Sirlaringga aqlim hayron.

Ming asrlar qa'ridagi,
Ertaksan sehrli ko'zgu.
Senda hikmat, rivoyatlar,
Tohir – Zuhrolarga chizgi.

«Tom va Jerri», «Shumtakalar»,
Quvonchisan bolalarning.
Seriallarning sanog'i yo'q,
Ovunchisan xolalarning.

«Oltin meros», «Ohanrabo»,
Milliy cholg'u asl navo.
Bobom tinglar to'lib-to'lib,
Kongillarga malham, davo.

Zangori oynai jahon,
Murabbiysan eng bilimdon.
Ta'rifingga tilim loldir,
Sirlaringga aqlim hayron.

FARANGIZGA

Buncha jajji, shirinsan,
Qizaloqsan yoqimtoy.
Oppoq lo'ppi yuzlaring,
Go'yo ko'kda nurli oy.

Ko'zlaring porloq yulduz,
Sochlaring ham jingalak.
Egningda atlas ko'ylak,
Go'yo rangin kamalak.

Katta bo'lsang mehribon,
Ko'p oqila qiz bo'lgin.
Jigarlarga jon kuyar,
G'amxo'r, shirin so'z bo'lgin.

Farangiz. hoy Farangiz,
Mittigina erkatoy.
Bog'dagi gulg'unchasan,
Go'yo ko'kda kulgan oy.

KUZ JILOSII

Issiq yoz hovurdan tushmoqda asta,
Oltin rang jilosi bog'larga ayon.
Tabiat chiroyi, bor to'kinligi,
Kuzning sahnasida bo'ldi namoyon.

Dehqon paxtadan tog' ko'tarar yana,
Bog'bon bog'larida mevalar shig'il,
Anoming yanog'i qizarib qolibdi,
Sersharbat uzumlar shingilu shingil.

Mezon shamollari yelmoqda bugun,
Bu serhosil kuzning tashrifi demak.
To'ylar mavsumida to'kin, sochinlik.
Oltin rang yaproqlar chalmoqda qarsak.

JIYANLARIM

Mening jajji jiyanlarim,
Qirdagi qizg'aldoqsiz.
Yurtimning suyanch tog'i,
O'g'lonu qizaloqsiz.

Jajjigina Ma'mura,
Aqli va bilimdon.
Quvnab kuylasa bulbul,
Raqsiga tushar u shadon.

Otanazar Vatanning,
Umidli o'g'lonisan.
Yomonlardan asraguvchi,
Pahlavonsan, qo'rg'onsan.

Mening aziz jiyanlarim,
Baxtu iqbolga to'ling.
Ota-ona bag'rida,
Mudom baxtiyor bo'ling.

PAXTAOY

Paxtaoyim, paxtaoy,
Bobodehqon farzandi.
O'zbekimning boyligi,
Oltini, shakar, qandi.

Paxtaoyim, paxtaoy,
Vataningdir keng dala.
Quvnab teraman dildan,
Zo'r ishtiyoq, havas-la.

Do'stlarim bilan birga,
Yig'ib xirmon qilamiz.
Kumush zardan qimmatsan,
Qadring tengsiz bilamiz.

Paxtaoyim, paxtaoy,
Gul diyoringa chiroy.
Sen bilan har xonadon,
Badavlat, to'kin va boy.

KUZ

Havas-la bog'larga qarayman,
Yaproqlar tovlanar oltin rang.
Xazonlar to'kilgan yo'laklar,
Zarhalga bo'yalgan bir qarang.

Xush hidlar keladi borliqdan,
Uzum pishgan, olmalar tarang.
Paxtazor oq dengizga o'xshar,
Xirmonlar tog' bo'lmoqda qarang.

Saxiy fasl oltin kuz kelib,
Tabiatni uyqu elitar.
Mezonlarni uchirgan shamol,
Bizni kumush qish tomon eltar.

Kunlar asta soviy boshlagan,
Daraxtlar ham yechinar behol.
Deydi: – Keyingi yil kelgunimcha,
Omon bo'lgin, yaxshi qol.

O'ZBEGIM O'G'LONLARI

Sizga qarab dilim havasda,
Harbiy kiyim ko'p yarashadi.
Chiroylisiz, o'ktam, barvasta,
O'zbekimning mard o'g'lonlari.

Chegarada siz qalqondaysiz,
Oilangiz, xalqingiz uchun.
Jonigizni berishga shaysiz.
O'zbekimning mard o'g'lonlari.

Temur bobom ruhi sizga yor,
Sizlar uning asl farzandi.
Dilingizda Jaloliddin bor,
O'zbekimning mard o'g'lonlari.

Dushman yaqin kelolmas aslo,
Siz bo'lsangiz sog'u salomat.
Ham barvasta, ham aqli raso,
O'zbekimning mard o'g'lonlari.

VATAN

Vatan degan ulug' so'z,
Onamdayin yagona.
Qarasam quvonar ko'z,
Vatanim gul, durdona.

Onajonim Vatanim,
Olam ichra bir donam.
Sen xuddi bir gulzorsan,
Gulzor ichra yagonam.

Ona borki, hayot bor,
Qalb mehriga qonamiz.
Vatan borki – millat bor,
Yurt ishqida yonamiz.

MUNDARIJA

<i>Ko'ngil dunyosiga tashrif</i>	3
<i>Xorazm</i>	5
<i>Buvijon</i>	6
<i>Qo'ziqorin</i>	7
<i>Oilamiz</i>	8
<i>Tabiat sahnasida</i>	9
<i>Gul qizlar</i>	10
<i>Havas</i>	11
<i>Temir tulpor</i>	12
<i>Qarindoshlar</i>	13
<i>Onam allasi</i>	14
<i>O'zbekiston</i>	15
<i>Ilhom parisi</i>	16
<i>Bobojonlar</i>	18
<i>Xazoraspim</i>	19
<i>Onaday aziz</i>	20
<i>Xayol</i>	21
<i>Qushlar ketmang</i>	22
<i>Ota mehri</i>	23
<i>Go'zal vatanim</i>	24
<i>Bayrog'im</i>	25
<i>Gerb</i>	26
<i>Yulduz siri</i>	27
<i>Birinchi ustoz</i>	28

<i>Kumush qish</i>	29
<i>Oynai jahon</i>	30
<i>Farangizga</i>	31
<i>Kuz jilosi</i>	32
<i>Jiyanlarim</i>	33
<i>Paxtaoy</i>	34
<i>Kuz</i>	35
<i>O'zbekim o'g'lonlari</i>	36
<i>Vatan</i>	37

NATLIB.UZ

SHU'LA
she'rlar

Muharrir
N. YUSUPOVA

Tex.muharrir
YE.DEMCHENKO

Badiiy muharrir
D.MUXTOROVA

Musahhah
Z.NURMANOVA

Kompyuterda sahifalovchi
A. SHAMAHMUDOV

Original maket "El-Press" MChJda tayyorlandi

Bosishga 06.08.2007 y.da ruxsat etildi.
Garnitura Bodoni Cyr+Uzb. Bichimi 70x84 1\32.
Bosma tobog'i 1,25. Shartli bosma tobog'i 1,46.
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 43.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.
MЧЖ «El-Press»da bosildi.
700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar
Nashr bo'limi 278-36-89, marketing bo'limi 128-78-43
Faks 173-00-14, e-mail: yangiasravlodi@mail.ru